

DAVLAT TOMONIDAN TADBIRKORLIKNI RAG‘BATLANTIRISH

Faxxodjonova E’zoza Nodir qizi

Jizzax politexnika institutini 3 - bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlar, ijtimoiy sohadagi tadbirkorlikning jamiyat rivojlanishidagi tutgan o‘rni to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxona, ijtimoiy loyihalar, davlat tomonidan rag‘batlantirish yo‘llari, uchinchi renessans, tarqqiyot strategiyasi.

ENCOURAGEMENT OF ENTREPRENEURSHIP BY THE STATE

ABSTRACT

This article provides information about the opportunities created in our country for entrepreneurship, the role of entrepreneurship in the social sphere in the development of society.

Key words: social entrepreneurship, social enterprise, social projects, ways of state promotion, third renaissance, development strategy.

O‘zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi aholi farovonligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida amalga oshirib kelinmoqda. SHu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizdagi qulay ishbilarmonlik muhiti, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar yangi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa davlatimiz tomonidan olib borilayotgan soha faoliyatini

rivojlantirishga doir islohotlar natijasida ularning oldidagi mavjud to'siq va g'ovlarni bartaraf etish hamda korxonalar faoliyati barqarorligini tahminlash va yanada rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi. Bugungi kunda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'i aynan kichik biznes hisobiga to'g'ri kelmoqda. SHu bois, tadbirkorlarning huquqlarini muhofaza qilish mutasaddi davlat organlari, muassasalari, huquq-tartibot organlarining ustuvor vazifasiga aylangan desak xato bo'lmaydi.

Yurtboshimiz rahnamoligida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subhektlariga sharoit va kafolatlar yaratish, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o'rinnari, ijtimoiy tovarlar va ijtimoiy xizmatlar bilan tahminlash;
- ✓ aholiga tibbiy buyumlar, dori vositalari yoki ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini tannarxida yoxud tannarxidan past bo'lgan narxlarda sotish;
- ✓ favqulodda holatlarga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan faoliyatni amalga oshirish kabilar kiradi.

Shu o'rinda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga kimlar kiritilishi haqida tanishadigan bo'lsak, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ❖ bozor sharoitida tovarlarni (xizmatlarni) xarid qilishda yoki mehnat bozorida ish topishda qiyinchilikka duchor bo'layotgan yoxud o'zgalarning ko'magiga muhtoj shaxslar, jumladan:
 - ❖ I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan bolalar;
 - ❖ yetim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar;

- ❖ ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan kasalliklar va atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan kasalliklarga (sil, onkologik, psixiatrik, narkologik, endokrinologik, infektsion, tanosil kasalligi, OITS va kasb kasalligi) chalingan shaxslar;
- ❖ qaramog‘ida 16 yoshga to‘lmagan yoki nogironligi bo‘lgan bolalari bo‘lgan yolg‘iz shaxslar;
- ❖ o‘qishni tugatgandan keyin 3 yil o‘tmagan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional tahlimi tashkilotlari bitiruvchilari;
- ❖ Mehribonlik uylarining 30 yoshga yotmagan bitiruvchilari;
- ❖ Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan shaxslar;
- ❖ o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashovchi keksalar;
- ❖ muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslar.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda ijtimoiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirib borish aholi farovonligini oshirish, daromadlarni ko‘paytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlama vakillarining muhofazasini kuchaytirish hamda uchinchi renessansni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

- 1.Sirojiddinov I., Hojiboeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va ta‘lim. T.: 2017 № 4, 36 b.
- 2.S.Sayfullayev, N.Komilova. Sanoat iqtisodiyoti. Toshkent, “G‘afur G‘ulom” nashri. 2019-yil. 123-128-betlar.
- 3.Bozorov B.U., Jalolov K.M. Industrial va innovatsion iqtisodiyot. Samarqand Davlat Universiteti, 2019-yil. 56-60-betlar.
- 4.Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umurova, G. (2022). SODERJANIE STRESS-TESTIROVANIYa EKONOMICHESKOY BEZOPASNOSTI BANKOVSKOY SISTEMQ. InterConf.
- 5.www.soliq.uz
- 6.www.uzdenemetr.com